

MEHNAT BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich

Qarshi xalqaro universiteti

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

haqqulovf1990@gmail.com

Annotatsiya: *Ta'lim tizimining mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashuvi, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida samarali hamkorlikning ahamiyati, shuningdek, innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Xalqaro tajribalar asosida ta'lim tizimining mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirishning metodologik va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Maqolada taqdim etilgan tahlillar, iqtisodiyotning turli sohalarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta'minlash uchun ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasida samarali integratsiyani amalga oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat bozori, innovatsion ta'lim metodlari, ta'lim texnologiyalari, xalqaro tajriba, moslashuvchanlik, metodologik tahlil, amaliy tahlil, integratsiya, raqobatbardosh kadrlar.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligi mehnat bozorida yuqori malakali, innovatsion fikrlashga ega va global talablarni qondira oladigan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimi mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashgan holda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarini taklif etishi kerak. Ta'lim tizimi nafaqat ilmiy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur, chunki bu holat mutaxassislarning ish joylarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri-bu ta'lim sohasi xisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda ushbu soha inson kapitalini shakllantirishning asosiy omillaridan biriga aylanib, mintaqalar va mamlakatlar milliy madaniyatini saqlashga, ta'lim sohasini rivojlantirishga, aholi daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasini davlat tomonidan qo'llabquvvatlash, ta'lim sohasida raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, chet el investitsiyalarni jalb etish, hamda jahonning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Bugungi kunda ta'lim xizmatlari bozori ijtimoiy-iqtisodiy tizimning iste'mol bozoridagi murakkab bo'lgan o'zaro bog'langan barcha elementlaridan tashkil topgan. Mazkur tizimni bosh generatori bo'lib,

shubhasiz, mehnat bozorida o'ziga xos tovar sifatida chiquvchi malakali professional kadrlar tayyorlashdagi jamiyatning ehtiyoji hisoblanadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim faoliyatidan ilmiy-texnik va innovatsiyalar sohasida natija sifatida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jarayoni muammolarini aniqlash, endogen va ekzogen omillarning ta'sirining o'zgarishi sharoitida muayyan maqsadlarga erishish qobiliyatini baholash muhim ahamiyatga ega zarurat hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlashtirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiylarini takomillashtirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va samarali mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish kabi masalalar dolzarb bo'lib hisoblanmoqda.

Asosiy qism. Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozorining hozirgi holatini tahlil qilish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ikki soha o'rtasidagi aloqalar, nafaqat ta'lim tizimi sifatini oshirish, balki iqtisodiy sektorlarning rivojlanishiga va jamiyatda barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimi, o'zgaruvchan mehnat bozorining talablariga moslashishda yuksak ahamiyatga ega. Bu jarayon, ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi integratsiya orqali yangi kadrlar tayyorlash va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga yordam beradi. Hozirgi kunda, oliy ta'lim tizimi va mehnat bozorining bir-biriga moslashishida bir qator muammolar mavjud bo'lsa-da, ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar ham mavjud. Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozorining integratsiyasi, yangi malakalar va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yangilanishlar bilan mustahkamlansa, bu ikki soha o'rtasidagi moslashuvni yaxshilash va mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar yetkazib berishning samarali yo'llarini topish mumkin bo'ladi. Ta'limning sifatiga ta'sir etuvchi omillar - oliy ta'lim tizimining sifatiga ta'sir etuvchi bir nechta omillar mavjud bo'lib, ularning har biri ta'lim jarayonining samaradorligini va natijalarini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Birinchi omil sifatida malakali professoro'qituvchilarning yetishmasligini ko'rsatish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning yetishmasligi, o'quv jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Bu holat o'quvchilarga yetarlicha sifatli ta'lim berish imkoniyatini cheklaydi, ayniqsa, murakkab va yangi ilmiy sohalarda. O'qituvchilarning malakasi nafaqat o'quv dasturlarini samarali yetkazish, balki talabalarning ilmiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi omil — resurslar va moddiy-texnik baza. Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan resurslar va moddiy-texnik baza ba'zi oliy ta'lim muassasalarida yetarli darajada rivojlanmagan. Yangi texnologiyalar, o'quv materiallari, kutubxonalar va ilmiy-

tadqiqot markazlari kabi zarur vositalarning yetishmasligi, ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limning sifatini va talabalarning o'z sohalarida yetarli darajada bilim olishini cheklaydi. Ilmiy salohiyatning etishmasligi ham ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlashda ilmiy salohiyat katta rol o'ynaydi. Yangi ilmiy yutuqlar va texnologiyalarni o'rgatish va tatbiq etish uchun zarur bo'lgan ilmiy salohiyat, ayniqsa, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishda, o'quv dasturlarini yangilashda va amaliyotga asoslangan ta'limni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ilmiy salohiyatning yetishmasligi, ta'lim tizimining mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob berish imkoniyatini cheklaydi. Bu omillarni hisobga olgan holda, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va mehnat bozorining talablariga mos ravishda ta'lim jarayonlarini rivojlantirish zarur. Resurslar va moddiy-texnik bazani mustahkamlash, malakali o'qituvchilarni jalb etish, ilmiy salohiyatni oshirish va innovatsion metodlarni joriy etish, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashda muhim omillar bo'lib, mehnat bozoriga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi - oliy ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida modernizatsiya qilish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlariga samarali javob berishga imkon yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarini yangilash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va yangi o'quv texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim tizimi sifatini oshirish va mehnat bozorining talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash mumkin. Innovatsion metodlar va yangi pedagogik yondashuvlar, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar uchun ta'lim olishni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimining global standartlarga moslashtirilishi va xalqaro tajribalar asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish, talabalarni nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi. Oliy ta'lim tizimini global mehnat bozorining talablariga moslashtirish orqali talabalar xalqaro ish bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishadi. Bu o'quvchilarga dunyo miqyosida rivojlanayotgan texnologiyalar, metodologiyalar va ishlash usullarini o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, masofaviy ta'lim tizimlarini joriy etish va raqamli platformalarni kengaytirish, talabalar va o'qituvchilar uchun o'zaro muloqot va bilim almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari nafaqat mahalliy, balki global miqyosda ham zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlashga qodir bo'ladi. Oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishda yetakchiga aylanishini ta'minlaydi. Ta'lim tizimining innovatsion va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi, jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishga olib keladi. Mehnat

bozorining ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va talabalarni real ish sharoitlariga tayyorlash, oliy ta'lim tizimida amaliyotga asoslangan ta'limni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Amaliyotga asoslangan ta'lim talabalarni ishga tayyorlashda nafaqat teorik bilimlar, balki haqiqiy ish sharoitlarida ko'nikmalarni o'rganishga imkon beradi. Oliy ta'lim muassasalarining sanoat sektorlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda amaliyot dasturlarini takomillashtirish, talabalarga professional sohada ishlashga tayyor bo'lishlariga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi yaqin hamkorlik orqali talabalarga ish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Amaliyotga asoslangan ta'lim nafaqat o'quvchilarga real ish sharoitlarida o'rganish imkonini beradi, balki ularni haqiqiy ish jarayonlariga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, mehnat bozorida ehtiyojlarni qondirish uchun amaliyot dasturlari rivojlanishi, o'quvchilarga yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va real ish muhitida mustahkam bilimlar olish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi va ularni mehnat bozorida yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Amaliyotga asoslangan ta'limning rivojlanishi, shuningdek, o'quv dasturlarining va o'qituvchilarning mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashtirilishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalarining ish beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilishi, yangi ish o'rinlari yaratishga, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalariga mos kadrlar tayyorlashga yordam beradi. Shuningdek, bunday ta'lim jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirilgan mutaxassislar tayyorlashga imkon yaratadi. Amaliyotga asoslangan ta'lim, jamiyatda yuqori malakali va tajribali mutaxassislar tayyorlashning eng samarali usuliga aylanadi, bu esa mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydi.

Xulosa. Raqobatbardoshlikka marketing faoliyati doirasida shunday omillar ta'sir ko'rsatadiki, bularga marketing vositalarining samaradorligi va innovatsionligi, brendlarni qo'llab-quvvatlash sifati, ta'lim dasturlari assortimenti va ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash darajasi kabilar kiradi. Investitsiya, tijorat, moliyaviy faoliyat infratuzilmani rivojlantirish uchun mablag'larni jalb qilish, moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, asosiy faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlarni realizatsiya qilish, buxgalteriya va boshqaruv hisobi tizimining xususiyatlari, audit tizimi xususiyatlari va samaradorligini oshirishga mablag' jalb qilishni nazarda tutadi. Texnik va texnologik omillar guruhiga infratuzilmaning sifati va uning ta'lim dasturlarini amalga oshirish talablariga javob berish qobiliyati ta'sir qiladi. Ta'lim xizmatlari bozoriga oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligining innovatsion omillar ta'siri o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlaridan foydalanish,

zamonaviy ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqadorligi orqali shakllandi. Oliy ta'lim tizimiga xalqaro omillarning ta'siri xalqaro darajadagi ta'lim xizmatlari bozori kon'yunkturasi, iqtisodiy, ilmiy va madaniy almashinuv darajasi, xalqaro ta'limdagi integratsiya darajasi va xalqaro reytinglardagi o'rni orqali belgilanadi. Ta'sir qilish ko'lami bo'yicha ta'lim xizmatlari bozorida OTMlari raqobatbardoshligining strategik omillari – odatda jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy-madaniy aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasi, milliy ta'lim tizimining rivojlanish darajasi, texnologik yangiliklarni amalga oshirish darajasi va yo'nalishini belgilab beradi. Jamoat institutlari rivojlanishining nisbatan past darajasi, texnik-texnologik qoloqlik va milliy iqtisodiyot samaradorligining etarli darajada emasligi innovatsiyalarni joriy etish hamda ta'lim jarayonlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillar guruhi strategik xususiyatga ega omillar sifatida ifodalanadi. Ta'lim xizmatlari bozorida OTMlarining raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi taktik tavsifga ega omillar bozor infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlari, fan va ta'limning rivojlanish darajasi va boshqa bir qator omillar bilan bog'liqdir. Raqobatbardoshlikning operativ omillari muayyan hududda, muayyan bir ta'lim muassasasi doirasida yaqin kelajakda qisqa vaqt ichida ahamiyatli bo'lmagan ta'sirining mavjudligini ifodalaydi. Ushbu omillarga raqobat munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, resurs ta'minoti, kontakdagi auditoriyalar bilan kommunikatsiya tizimining mavjudligi kabilar kiradi. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini shakllantirish o'ziga xos omillar majmuasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra: OTMlari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar ta'sir etish davri, ta'sir etish ko'lami, qamrab olish miqyosi, qo'llash sohasi, moliyalashtirish tavsifi hamda ta'sir etish xususiyatiga ko'ra alohida yo'nalishlar bo'yicha guruhlash asosida tasnifi ishlab chiqildi; ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish asosida ilmiy tadqiqot maktablarining innovatsion yutuqlarini birlashtirish jarayonlarini jadallashtirish; ta'lim sifatiga qo'yiladigan malaka talablarini standartlashtirish; ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amaliyotga tatbiq qilish; ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligi omillari hamda tamoyillari aniqlanib, oliy ta'lim muassasalari ko'rsatkichlar taxlili asosida ilmiy takliflar ishlab chiqish; oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini baholash metodikasi xususiy ko'rsatkichlarning ahamiyatlilik darajasi bo'yicha reytingini har bir ko'rsatkichning ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini vazn koeffitsientlari orqali aniqlash asosida takomillashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // —Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 25 yanvar. 19-son. 1-4 betlar.
2. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., professor Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida. – T.: —Fanva texnologiyal nashriyoti, 2013. – 476 bet.
3. Pardaev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. – T.: —Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyil, 2020. – 200 b.
4. Isroilov B.I. Ta'lim tizimida korrupsiyani oldini olish masalalari. // Innovatsion varaqamli iqtisodiyat sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolari. (21-22 fevral 2020 yil) Xalqaro IAK materiallari, Samarqand-Tambov, 2020. – 183-186-betlar.
5. Rajabov B.J., Toshnazarov S.N., Islomov B.S. va boshqalar. Ta'lim sifatini yaxshilashda erishilgan natijalardan samarali foydalanish. Monografiya. – T.: —TURON-IQBOI